



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 1-8 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SIFATINI NAZORAT QILISHDA XALQARO SERTIFIKATLASH TIZIMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI



**Tuychieva Begoyim Voxidjon kizi**

Farg'ona davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilishda xalqaro sertifikatlash tizimlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Jumladan, ISO 22000, HACCP va GlobalG.A.P. kabi standartlarning korxonalar faoliyatiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida tahlil, qiyosiy va statistik usullardan foydalanilib, sertifikatlangan korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari baholangan. Olingan natijalarga ko'ra, xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish eksport hajmini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash, mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish va iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, sertifikatlash jarayoni bilan bog'liq xarajatlar va institutsional muammolar ham mavjudligi qayd etilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulot sifati, xalqaro sertifikatlash, ISO 22000, HACCP, GlobalG.A.P., sifatni boshqarish tizimi, iqtisodiy samaradorlik, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik, standartlashtirish, sifat nazorati.

**Аннотация.** В данной статье анализируется экономическая эффективность международных систем сертификации в контроле качества пищевой продукции. В частности, изучалось влияние таких стандартов, как ISO 22000, HACCP и GlobalGAP, на деятельность предприятий. В процессе исследования использовались аналитические, сравнительные и статистические методы для оценки экономических показателей сертифицированных предприятий. По полученным результатам установлено, что внедрение международных систем сертификации способствует увеличению объемов экспорта, повышению эффективности производства, снижению потерь продукции и укреплению доверия потребителей. При этом отмечается наличие также затрат и институциональных проблем, связанных с процессом сертификации. В статье разработаны предложения по устранению этих проблем.

**Ключевые слова:** безопасность пищевых продуктов, качество продукции, международная сертификация, ISO 22000, HACCP, GlobalGAP, система управления качеством, экономическая эффективность, экспортный потенциал, конкурентоспособность, стандартизация, контроль качества.

**Abstract.** This article analyzes the economic efficiency of international certification systems for food quality control. Specifically, the impact of standards such as ISO 22000, HACCP, and GlobalGAP on enterprise operations was examined. The study utilized analytical, comparative, and

*statistical methods to assess the economic performance of certified enterprises. The findings demonstrate that the implementation of international certification systems contributes to increased export volumes, improved production efficiency, reduced product losses, and enhanced consumer confidence. However, costs and institutional challenges associated with the certification process are also noted. The article develops proposals for addressing these challenges.*

**Keywords:** *food safety, product quality, international certification, ISO 22000, HACCP, GlobalGAP, quality management system, cost-effectiveness, export potential, competitiveness, standardization, quality control.*

## **Kirish**

Jahon miqyosida aholi sonining ortishi asosida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning yuqorilashi natijasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni strategik ahamiyat muhim masalaga aylantirildi. Bugungi kunda nafaqat mahsulot miqdori, balki uning ishlab chiqarish jarayoni, sifati va xavfsizligi ta'minlash asosiye'tibor talab qilinayotgan tarmoq sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, globallashtirish jarayonida davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining kengayishi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan xalqaro standartlar talablarini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilish va xavfsizligini ta'minlashda xalqaro sertifikatlash tizimlari muhim o'rin egallamoqda. Jumladan, ISO 22000, HACCP, GlobalG.A.P. kabi tizimlar ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu standartlar mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib, iste'molchiga yetib borgunga qadar bo'lgan barcha zanjirda sifatni ta'minlashga qaratilgan.

So'nggi yillarda xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayishi, ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan oziq-ovqat sanoati korxonalarini uchun xalqaro sertifikatlariga ega bo'lishni zarur shartga aylantirdi. Iste'molchilar talabining ortishi, eksport bozorlarida raqobatning kuchayishi hamda xalqaro savdo talablari oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilardan yuqori sifat standartlariga rioya qilishni talab etmoqda. Chunki ko'plab rivojlangan davlatlar bozorlariga kirishda mahsulot sifati va xavfsizligi bo'yicha qat'iy talablar qo'yilmoqda. Bu esa milliy ishlab chiqaruvchilardan xalqaro standartlarga moslashishni talab etadi.

Bundan tashqari, xalqaro sertifikatlash tizimlari nafaqat mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlaydi, balki korxonalarining ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirishga ham xizmat qiladi. Masalan, xavflarni oldindan aniqlash va bartaraf etish orqali brak mahsulotlar ulushi kamayadi, resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi hamda ishlab chiqarish jarayonidagi yo'qotishlar qisqaradi. Shu bilan birga, xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish muayyan iqtisodiy xarajatlar va tashkiliy murakkabliklarni ham talab qiladi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun sertifikatlash jarayoni moliyaviy jihatdan og'irlik qilishi mumkin. Bu esa ushbu sohada davlat qo'llab-quvvatlovi, institutsional mexanizmlar va malakali kadrlar tayyorlash masalalarini dolzarb qilib qo'yadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilishda xalqaro sertifikatlash tizimlarining iqtisodiy samaradorligini har tomonlama tahlil qilish, ularning korxonalar faoliyatiga ta'sirini

baholash va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ISO 22000, HACCP, GlobalG.A.P. kabi xalqaro sertifikatlash tizimlari korxonalar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimlar nafaqat mahsulot xavfsizligini ta'minlaydi, balki korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va sifatini ta'minlash masalasi xalqaro ilmiy doiralarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida xalqaro sertifikatlash tizimlarining ahamiyati ortib borayotgani sababli mazkur masala iqtisodiy va boshqaruv nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy yo'nalishga aylangan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda standartlashtirish va sertifikatlashning muhimligini ta'kidlaydi. Jumladan, ISO (International Organization for Standardization) tomonidan ishlab chiqilgan ISO 22000 standarti oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimini joriy etishda universal yondashuv sifatida qaraladi. Ushbu standart ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida xavflarni aniqlash va nazorat qilishni ta'minlaydi hamda korxonalar faoliyatida tizimli boshqaruvni yo'lga qo'yadi.

Bir qator xorijiy olimlar xalqaro sertifikatlash tizimlarining iqtisodiy samaradorligiga alohida e'tibor qaratishgan. J. F. Treysi o'zining oziq-ovqat xavfsizligiga oid tadqiqotlarida xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari iste'molchilar ishonchi va bozordagi raqobatbardoshlik uchun hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. U mahsulotlar xavfsizligini ta'minlashni davlat, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi muvofiqlashgan harakat sifatida baholaydi [7]. Biroq uning qarashlari ayrim tadqiqotchilar tomonidan tanqid qilingan. Ya'ni, u zaif infratuzilmaga ega davlatlar sharoitini yetarli darajada inobatga olmagan. Uning tadqiqotlarida sertifikatlash korxonalar uchun qo'shimcha xarajatlarni talab qilsa-da, uzoq muddatda daromadlarni oshirishi, bozor ulushini kengaytirishi va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini kuchaytirishi qayd etilgan. Shuningdek, sertifikatlash korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi.

MDH davlatlari va O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro standartlarni joriy etish masalalari o'rganilgan. Jumladan, H. Ergashev o'zining "Sertifikatlash va standartlashtirish tizimi" nomli ilmiy ishida O'zbekistondagi mavjud sertifikatlash tizimidagi kamchiliklarni ochiq bayon etadi. Uning fikricha, mamlakatda texnik jihatdan tartibga solish organlari o'rtasida muvofiqlik yetarli emas, laboratoriya sinovlari esa xalqaro standartlarga to'liq javob bermaydi. Bu esa mahsulot sifati va xavfsizligiga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Muallif ushbu muammolarni bartaraf etish uchun milliy sertifikatlash tizimini ISO 22000 va Codex Alimentarius talablariga uyg'unlashtirishni taklif etadi [9]. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor milliy iqtisodiyot sharoitida xalqaro talablarga moslashish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va korxonalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda xalqaro sertifikatlash jarayonining yuqori xarajatliligi, kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun moliyaviy cheklovlar mavjudligi, ushbu sohada malakali kadrlarning yetishmasligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari sifatini

nazorat qilishda axborot va konsalting xizmatlarining cheklanganligi yuzasidan tadqiqotlar keltirilgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro sertifikatlash tizimlari oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligi va joriy etish mexanizmlari bo'yicha kompleks tadqiqotlar hali ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilishda xalqaro sertifikatlash tizimlarining nazariy asoslarini o'rganish uchun tahlil va sintez usuli asosida, sertifikatlangan va sertifikatlanmagan korxonalar faoliyatini taqqoslash maqsadida qiyosiy tahlil usulidan, ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari va daromadlar o'zgarishini baholash uchun statistik tahlillardan hamda alohida oziq-ovqat korxonalarini misolida tahlil qilish uchun turli ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari sifatida ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va amaliyotdagi korxonalar faoliyatidan olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

So'nggi yillarda tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etgan korxonalarda bir qator ijobiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi sezilarli darajada yaxshilangan kuzatildi. Jumladan:

Eksport hajmining ortishi yuzasidan sertifikatga ega korxonalar xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lib, eksport hajmi o'rtacha 20–35%ga ortgan. Xususan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ISO 22000 sertifikatiga ega oziq-ovqat korxonalarining eksport ulushi umumiy ishlab chiqarishning 60–70% ni tashkil etadi. Ushbu davlatlarda foyda darajasi (Profitability) oziq-ovqat korxonalarida sertifikatlashdan keyin korxonalarda sof foyda o'rtacha 15–20% ga ortgan. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishda samarali boshqaruv va resurslardan oqilona foydalanish hisobiga xarajatlar 10–15% ga kamaygan. Sifat standartlari talablariga javob bermaydigan mahsulotlar ulushi HACCP tizimi joriy etilgan korxonalarda ushbu ko'rsatkich ulushi 20–30% ga kamayishiga erishilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribalarda asosan ISO 22000 standartlarini joriy etilishi natijasida oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilishda raqamli platformalar joriy etilganligi, eksport xajmini ortganligi, iste'mol qiymati o'zgarayotganligini kuzatish mumkin (1-jadval).

### **1-jadval**

#### **Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi xalqaro tajribalar<sup>1</sup>**

Evropa Ittifoqi (EU)	Evropa mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligi sohasida qat'iy reglamentlar mavjud. FSSC 22000 va ISO 22000 standartlari keng joriy etilgan. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari eksporti yuqori darajada barqarorligi ta'minlangan, ichki bozorda iste'molchilar ishonchi yuqoriligi hamda mahsulot qaytarib olish holatlari (recall) 15–20% ga kamayishiga erishilgan.
AQSh (USA)	AQShda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashda zamonaviy tizim

<sup>1</sup> Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

	FSMA (Food Safety Modernization Act) joriy etish natijasida, oziq-ovqat xavfsizligini oldindan boshqarishga asoslangan. Ushbu mexanizm asosida oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar 10–15% ga kamayishiga erishilgan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli monitoring tizimlari keng joriy qilingan. Natijada, eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlari kengayishiga erishilgan.
Xitoy (China)	Xitoyda oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilishda raqamli platformalar joriy etilgan. Xususan, blokcheyn texnologiyasi orqali mahsulot kelib chiqishini kuzatish (traceability), sifat nazorati tizimlari orqali eksport 30% ga ortishiga, yaroqsiz yoki zararli oziq-ovqat mahsulotlarni aniqlash tezligi 2 barobar ortishiga erishilgan.
Turkiya (Turkey)	Turkiyada ISO 22000 va HACCP tizimlari keng joriy qilingan. Xususan, ushbu tizim asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 20–25% ga ortishiga erishilgan. GlobalG.A.P. sertifikatiga ega fermerlar soni yil sayin ortishi hisobiga, Yevropa bozoriga oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqish imkoniyati kengaygan.
O'zbekiston	O'zbekistonda ham oziq-ovqat sanoatida xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bungu kunda ISO 22000 va HACCP joriy etilgan korxonalar soni ortishi hisobiga eksportbop mahsulotlar hajmi yillik o'rtacha 15–20% ga o'sishiga erishilgan. Davlat tomonidan sertifikatlash xarajatlarini qisman qoplash mexanizmlari joriy qilingan.

Tahlil natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, so'nggi yillarda an'anaviy sertifikatlash tizimlari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlar ham joriy etish natijasida FSSC 22000 (Food Safety System Certification), ISO 22000 asosida takomillashtirilgan tizim bo'lib, yirik xalqaro kompaniyalar tomonidan keng qo'llanilmoqda. U ta'minot zanjirini to'liq qamrab oladi. Shuningdek, Blockchain-based traceability systems tizimi orqali oziq-ovqat mahsulotlarining savdo harakatini to'liq kuzatish imkonini beradi. Bu tizim shaffoflikni oshirishi, soxtalashtirish holatlarini kamaytirilishiga erishish hamda iste'molchi ishonchini mustahkamlashga ko'maklashadi. Oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilishda Digital Food Safety Management Systems (DFSMS) raqamli platforma asosida real vaqtda monitoring qilish, avtomatlashtirilgan tahlillarni olib borish, mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishida inson omilini kamaytirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda Oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish mexanizmining ijobiy tomonlari qatorida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, kichik biznes uchun moliyaviy cheklolarning mavjudligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, raqamli tizimlarni joriy etishda infratuzilma muammolarini keltirish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro sertifikatlash tizimlari orqali oziq-ovqat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini 15–30% gacha oshirishga,

eksport imkoniyatlarini sezilarli kengaytirishga, mahsulot sifatini barqaror ta'minlanishiga, global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishiga imkon yaratadi.

Aytish o'rinliki, mavjud global vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sohaga bozor munosabatlarini joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar dasturi amalga oshirilyapti.

Aholi sonining o'sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillardir. So'nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston dunyoda egallagan o'rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o'z mavqeini yaxshilab oldi. O'zbekiston Respublikasi 2018 yilda Global ochlik indeksi bo'yicha 119 mamlakat orasida 52-o'rinni egallab, 12,1 ko'rsatkich bilan «mo'tadil» darajaga erishdi. Biroq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o'zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

Alohida qayd etish o'rinliki, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan bugungi kunda yer va suvdan foydalanish, agrosanoat majmui, o'rmon xo'jaligi, ekologiya, chorvachilik va boshqa ko'plab yo'nalishlar bo'yicha manfaatli hamkorlik qilinyapti. O'zaro hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligi, fundamental ilmiy tadqiqotlar, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, Orolbo'yining ekologik muammolarini hal qilish va boshqa sohalarda aniq loyiha va tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan 2030 yilga qadar hamkorlik bo'yicha yangi dasturni ishlab chiqish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekiston xalqaro hamjamiyatda ham oziq-ovqat xavfsizligi sohasida hamkorlikni kengaytirish borasida bir qator takliflarni ilgari surib keladi. Jumladan, Yevroosiyo iqtisodiy kengashi yig'ilishida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari importi o'rnini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan faol egallashni rag'batlantirish, "yashil" yo'laklar, shu jumladan, "Evroosiyo agroekspressi"ning to'laqonli faoliyatini ta'minlash, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni birgalikda olib borish va innovatsiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash, mamlakatlarimiz agrobiznes vakillari kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasida tashabbuslar ilgari surildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish siyosati har qanday mamlakatda sog'lom va barqaror ovqatlanish standartlarini o'rnatish uchun zarurdir. Maktablar, shifoxonalar kabi muhim muassasalarda ovqatlanishni yaxshilash uchun milliy va submilliy darajadagi oziq-ovqat xaridlari bo'yicha salohiyatni oshirishimiz kerak. Chunki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sog'lom ovqatlanish aholi salomatligi uchun eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblangan ko'plab yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oziq-ovqat, jumladan, un mahsulotini fortifikatsiyalash, tuzni yodlashtirish tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Sog'lom va to'g'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va semizlikni bartaraf etish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, sog'lom ovqatlanish ratsioniga doir tavsiyalarni yurtdoshlarimizga yetkazish, turli yoshdagilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatishni yuqori darajaga ko'tarish maqsadida

“To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” yangi umummilliy harakatini mahallalardan boshlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Umuman olganda, oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning ta‘minlanishi aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va jamiyat barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini baholash uchun bir qator reytinglar va indekslar mavjud. Bulardan eng mashhuri Global Hunger Index (GHI) – Jahon ochlik indeksidir. GHI davlatlarning ochlik holati va oziq-ovqat bilan ta‘minlanganligini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Mazkur indeks ochlik darajasini to‘rt asosiy ko‘rsatkich orqali baholaydi: to‘yib ovqatlanmaslik, bolalarning bo‘y o‘shishi, vazn yetishmasligi va bolalar o‘limi darajasi. Ushbu indeks mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi samaradorligini ko‘rsatadi va ularga zarur siyosiy chora-tadbirlarni belgilashda yordam beradi.

Mazkur ystuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi – malakalarning barcha aholisi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat. Ustuvor yo‘nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga qaratilgan.

#### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilishda xalqaro sertifikatlash tizimlari (ISO 22000, HACCP, GlobalG.A.P., FSSC 22000) muhim ahamiyatga ega sifatida nafaqat mahsulot xavfsizligini ta‘minlaydi, balki korxonalarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishiga erishish mumkin. Jumladan, eksport hajmi va bozor ulushi: sertifikatlangan korxonalarda eksport hajmi o‘rtacha 25–40% ga oshgan va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayishiga erishiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi va xarajatlarni optimallashtirish: brak mahsulotlar ulushi 20–30% ga kamaygan, resurslardan samarali foydalanish ta‘minlanadi.

Foyda darajasi va investitsion jozibadorlik: sertifikatlash natijasida sof foyda 15–20% ga ortishiga, ozi-ovqat sanoati korxonalarining investitsiya uchun qiymati va bozordagi raqobatbardoshligi ortiga erishiladi.

Xalqaro tajribalar: Yevropa, AQSh, Xitoy va Turkiyada zamonaviy raqamli va blokcheyn asosidagi tizimlar joriy etilgan bo‘lib, ular mahsulot shaffofligi va xavfsizligini ta‘minlashda qo‘shimcha samaradorlik yaratadi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida xalqaro standartlarni joriy etish orqali eksportbop mahsulotlar hajmi ortib bormoqda, ammo kichik va o‘rta biznes sub‘ektlari uchun moliyaviy va infratuzilma yetarli emasligini kuzatish mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida:

Birinchidan, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish zarur. Ushbu mexanizmlar sifatida kichik va o‘rta biznes uchun sertifikatlash xarajatlarini qisman qoplash, subsidiya va imtiyozli kreditlar berish tashkil etish. ISO 22000 va HACCP sertifikatini olgan korxonalar uchun soliq va boshqa imtiyozlar joriy qilish.

Ikkinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilish borasida malakali kadrlar tayyorlashda sifat menejmenti va xavfsizlik sohasida maxsus treninglar va kurslar tashkil etish. Oliy ta‘lim va kasb-hunar muassasalarida ISO va HACCP asosida ta‘lim dasturlari yaratish.

Uchinchidan, raqamli monitoring va innovatsion tizimlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari nazorati uchun blokcheyn va raqamli platforma asosida tizimlar joriy etish. Mahsulotning kelib chiqishini va sifatini real vaqtda kuzatish mexanizmlarini joriy qilish.

To'rtinchidan, xalqaro tajribani joriy etish orqali Yevropa va AQSh tajribasidan kelib chiqqan holda oziq-ovqat xavfsizligi nazorati standartlarini milliy shartlarga moslashtirish. GlobalG.A.P. va FSSC 22000 kabi tizimlarni fermer xo'jaliklari va sanoat korxonalarida keng joriy qilish.

Shuningdek, mamlakatda qonunchilik va normativ bazani takomillashtirish borasida oziq-ovqat xavfsizligi va sertifikatlash tizimlari bo'yicha milliy qonunchilikni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish. Kontrolling va audit mexanizmlarini samarali qilish uchun normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish. Ushbu tizimlar milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2020 yildagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4821-son Qarori.

2. Волкова Н.А., Ясковой Д.В. Анализ конкурентоспособности пищевых предприятий. УДК:: 338.45:664.6(477)

3. Kadirov, A. (2021). Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kontrolling tizimi samaradorligini baholash. Iqtisodiyot va ta'lim, (3), 152-158.

4. Kadirov, A.M. (2021). Модель обеспечения экономической устойчивости промышленных предприятий на основе системы контроллинга.

5. Kadirov Abdumalik Theoretical and methodological foundations of ensuring financial and economic stability of enterprises. E3S Web of Conferences 402, 08005 (2023) TransSiberia 2023 8005 (08005), 1-15

6. Дырдонова А.Н. Управление устойчивым развитием промышленных кластеров / Автореферат диссертации...доктора экономических наук. Курск. 2019. 48 с.

7. Tracy, J.F. (2018). Food Safety and Quality Systems in Global Markets. Oxford University Press

8. Шаталова А.Н. "Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности". Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2020.

9. Ergashev H. (2020). Sertifikatlash va standartlashtirish tizimi. Toshkent: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

